


O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Ibodullaeva N.

**Odam boshini rangtasvirini ishlash
(rangtasvirdan o`quv metodik
qo`llanma)**



Urganch – 2006

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

Ibodullaeva N

**Odam boshini rangtasvirini ishlash
(rangtasvirdan o`quv metodik
qo`llanma)**

Tasviriy san`at va muhandislik
grafikasi va Amaliy san`at yo`nalishi uchun

Urganch – 2006

Ushbu «Odam boshini rangtasvirini ishlash» mavzusidagi rangtasvirdan tayyorlangan metodik qoʻllanma tasviriyl sanʼat va muhandislik grafikasi yoʻnalishlari boʻyicha taʼlim olayotgan talabalar uchun moʻljallangan boʻlib, unda odam boshini rangtasvirini ishlash va portret rangtasvirini ishlash haqida qisqacha maʼlumotlar va portret rangtasvirining vazifalari haqida toʻxtalib oʻtilgan.

Maʼsul muharrir: PED.F.N., dotsent Roʻziev E.I.

Taqrizchilar: PED.F.N., Xudoyberganov A.
K.oʻqit. Togonov R.

Al Xorazmiy nomidagi Urganch Davlat universiteti ilmiy kengashining «_____» _____ 2006 yildagi majlis qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etildi.

(_____sonli bayonnoma)

Oliy o`quv yurtlarining badiiy grafika fakultetlarida odamni tasvirlashga o`rgatish qalamtasvir va rangtasvir o`qitishning asosiy vazifalaridan biridir.

Maishiy kartina va natyurmort ustidagi murakkab ijodiy vazifalarni hal qilishga kirishishdan oldin, odam boshi va figurasini professional mahorat bilan ishlashni o`rganish lozim. Buning uchun tirik naturani konstruktiv qura olishni, detallarni umumlashtira olish, ton munosabati va plastik xususiyatlarini tasvirlash va umumlashtirish malakasini oshirish kerak.

Talaba yuqoridagilarni o`rganib, unga amal qilmasa portreti chizilayotgan odamning individual, ichki, psixologik xususiyatlarini bera olmaydi.

Odam boshini rangtasvirini ishlash- nazariy bilim va amaliy ko`nikmalarni egallashda uzoq jarayon hisoblanadi.

Tirik shaklni tasvirlashda katta tajriba bo`lishi kerak, ya`ni shaklni chizishda uni konstruktiv qurish, tonli, hajmli berish ko`nikmalarini oshirish lozim.

Odam boshini rangtasvirini ishlash vazifalari va jarayoni, boshqa janrlar ustida ishlashdagidek bo`ladi: ya`ni shakli, hajmi va materiallilik sifatlarini berish, masofali ko`rsatish va hokazo. Bundan tashqari naturaning rang munosabatlarini yaxlit qabul qilish, yorug`likni shaklning rang xarakteristikasiga ta`siriga e`tiborni qaratish, katta shaklni yaxlitligini saqlagan holda detallarini ishlash lozim.

Odam boshini ishlashni o`rganishni birinchi boskichida uni anatomiyasini, hajmli, shaklli, rang bilan ishlashni, uni individual sifatlarini aniqlashni o`rganishni ko`zda tutadi. Talaba tirik inson tanasini fakturasini bera olishni o`rganishi, shuningdek uning rang xarakteristikasini va atrof-muhit va yorug`lik bilan aloqasini aks ettira olishi kerak.

Odam boshi va figurasini rangtasvirini ishlashdan oldin tonli rasm chizish texnikasini o`zlashtirish, ya`ni mayda detallar va umumiy formaning yaxlitligini hisobga olib, anatomik aniqlik (konstruktiv) bilan ishlash malakasini oshirishi kerak.

Boshlovchi rassom, ayniqsa nisbatni to'g'ri ilg'ay olishi kerak. Bu sifatlarsiz u odam boshini murakkab shaklini tasvirlay olmaydi.

Odam boshini rangli tasvirini o'rgatish jarayonini bir-biriga bog'liq bulgan bir necha bosqichga bo'lish mumkin:

- 1) Grizayl texnikasida odam boshini tasvirini ishlash.
- 2) Tabiiy yorug'likda odam boshini tasvirini ishlash.
- 3) Sun'iy yorug'likda odam boshini tasvirini ishlash.
- 4) Plener sharoitida odam boshini tasvirini ishlash.

Grizayl texnikasida odam boshini tasvirini ishlash

Naturaning ton munosabatlarini to'g'ri bera olish, realistik rangtasvirning eng asosiy, tarkibiy elementlaridan hisoblanadi.

Rangtasvirda ton munosabatlari, rang munosabatlari bilan birgalikda hajmli forma qurish va ob'ektlarining materialini, fakturasini berishning, ranglarini to'g'ri joylashtirishning asosiy poydevori hisoblanadi. Odam boshini grizayl texnikasida tasvirlay bilish, keyinchalik bu vazifani rangtasvirda bajarishni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

1-rasmda odam boshini grizaylda ishlash namunasi berilgan. Bu rasmda kiyim, soch, fon va yuzning ton, dog' munosabatlari yaxshi berilgan.

Odam boshining rangli tasvirini ishlashdan oldin boshlovchi rassom tonda bir necha etudlar ishlashi foydalidir.

Bu vazifaning maqsadi odam boshining shaklini yorug'-soya munosabatlarida berishni o'rganishdan iborat. Bu vazifani to'g'ri hal qilgandan keyin murakkabrok bo'lgan rangli tasvirga o'tish mumkin. Bu mashq qalamtasvirdan rangtasvirga o'tuvchi ko'prik hisoblanadi, u o'zida kalamtasvirning ham, rangtasvirning ham elementlarini saqlab qolgan.

Shaklni mo'yqalam yordamida chiqarish, xuddi shu shaklni qogozga qalamda chiqarishdan tubdan farq qiladi.

Qalamtasvirda shakl o'rganib, konstruktsiya tahlil qilinadi va buyumlarining rang xarakteristkasi shartli aniqlanadi. Buyumlarining yoritilganligi ham «ton masshtabi» yordamida

shartli beriladi. qalamtasvirda shakl va konstruktsiya fonsiz chiziqli qilib berilishi mumkin.


Mo'yqalam bilan ishlaganda shaklni atrof-muhit, fondan ajratmaslik, aksincha predmet joylashgan muhit bilan ishlash kerak.

Odam boshini bir tonda ishlash uchun odatda ikkita bo'yoq olinadi: Tabiiy umbra va oq bo'yoq. Kuydirilgan umbra va oq bo'yoq ham ishlatilishi mumkin. Yorqin ranglar ishlatilmaydi.

Tonda ishlash uchun to'gri keladigan model tanlash lozim. Yaxshisi boshining anatomik tuzilishi aniq bilinib turgan erkak modelini qo'ygan yaxshi. Model sifatida yosh bolalar boshchalaridan foydalanish tavsiya qilinmaydi. Chunki bolalar boshining konstruktsiyasi va shakli noaniq va yumshoq bo'lgani uchun qiyinroq o'qiladi.

Fon uchun kulrang yoki kulrang-jigarrangli yupqa parda ishlatiladi.

Modelni shunday joylashtirish kerakki, uning boshi aniq o'qilishi kerak, yorug'lik esa naturaning shakl xarakteri va hajmini ko'rsatishi lozim. Buning uchun yorug'lik yonbosh va yuqoridan berilishi kerak. Agar boshning yorug' joylari, masalan peshonasi fondan to'qroq bo'lsa, shaklni sezish va uni ko'rsatish osonroq bo'ladi.



1 – rasm

Model qo'yilgandan keyin, rassom uni xolstga kompozitsion joylashtirish to'g'risida o'ylashi kerak.

Kompozitsiya qurish ko'rish nuktasini aniqlashtirishdan boshlanadi. Bu erda o'lchamni topib modelni chizib boshlaydi. Boshni natural o'lchamidan katta qilib olmaslik uchun etud uchun xolst kichikroq qilib tayyorlanadi.

Boshning etudini ishlash uchun 30 x 40 sm o'lchamdagi xolst tavsiya qilinadi. Boshni ishlashdan oldin xolstga chiziladi. Asosiy e'tibor kalla qurilishi, konstruksiyasi va detallarni nisbatlarini aniq olishga qaratiladi.

Odam boshini rangtasvirini ishlashdan oldin uni xolstga qalamda ishlanadi. Bunda modelni aniq detallashtirish va shaklning yorug'-soya xarakteristikasini tahlil qilish shart emas. Bularning hammasi keyinroq mo'yqalam bilan ishlaganda paydo bo'ladi.

Boshning rasmini qalamda emas, ko'mirda ishlagan yaxshi, unda yorug'-soya munosabatlarini va tonning xilma-xilligini belgilash oson. Ko'mir qalamdan farqli o'laroq ravishda yumshoq bo'lgani uchun, latta yoki o'chirgich oson o'chirishi mumkin, shuning uchun u bilan xolstga zarar etkazmay uzoq ishlash mumkin. Lekin o'chirgichni ko'p ishlatsak, xolstni grundi ko'chib, material qurishib qoladi, bundan esa bo'yoqlar surilib ketib, rang qolmaydi. Shuning uchun o'chirgichni kamroq ishlatgan yaxshi.

Tasvir tayyor bo'lgandan keyin, ko'mir pinenda eritilgan dammar lak bilan qoplanadi. Agar grunt elimli bo'lsa, rasmni ustidan pulverizator bilan suv sepiladi. Suv gruntdagi elimni bir qismini eritib, ko'mirni ustini koplaydi. Ko'mir bilan ishlangan tasvirni qotirmay ish boshlash tavsiya etilmaydi, chunki bunda kumir ishlatganda, bo'yoqni kir qilib, yoyilib ketadi.

Rasm tayyor, mustahkamlashgan va qurigan bo'lsa ish boshlash mumkin.

Ish nimadan boshlanadi ?

Oldin naturani yaxshilab kuzatamiz, yorug' tomonni soya tomoniga solishtiramiz, eng to'q va eng yorug' tomonlarni aniqlaymiz. Bu munosabatlarni fikrlab tahlil qilib, palitrada kerakli umbra yoki marsni oq bo'yoq bilan qo'yamiz. Oq bo'yoq yorug' tomonlar va fon uchun ishlatiladi.

Palitrada qorishma tayyorlab bo'lib, yirik muyqalam olib boshning soya tomonidan ishni boshlaymiz. Ishni soyadan boshlash maqsadga muvofiqdir, chunki bunda darrov boshning shakli aniqlanadi va tonlarni darrov aniqlash imkoni paydo bo'ladi.

SHaklni tonli tasvirlash esa rang bilan ishlashning asosi hisoblanadi. To`q, soyali tomonga rang ko`ylak, fonni ishlash zarurati paydo bo`ladi, fonsiz ok xolatda soya tomonini topish ancha mushkul bo`ladi. Chunki fon ishlatilsa soya tomon yanada qorayganga o`xshab qoladi.

Boshning bir tomoniga fon qo`yilgandan keyin, uni ikkinchi tomonini ham ishlagingiz kelib qoladi. Fon ishlagandan keyin boshning orqasidagi masofani sezamiz va boshni yanada hajmliroq qilib chiqaramiz. Keyin boshning yorug` tomoniga rang qo`yamiz, yorug` tomonini soya tomon va fon bilan hamma vaqt solishtirib turing.

Bu ishni bo`lak detallar ustidan uzoq vaqt to`xtamasdan, qo`rqmasdan va erkin bajaring.

Bo`yoq ni birinchi qo`lga olganda suyuqroq oling, keyin quyuqroq, rang qo`shganda halakit bermaydi. Birinchi ish boshlagandayok boshning yorug` tomoni, uni masofada joylashuvini aniq berishga harakat qiling. Agar etudning yaxshi chiqmagan va bo`yoq lari qalinlashib ketgan joylari bo`lsa, mastixin bilan olishni tavsiya etamiz. Mazok yaxshi qo`yilmagan bo`lsa, u shaklni yaxshi tasvirlay olmaydi va rangni bera olmaydi. SHunday paytda mastixin bilan qirib olinadi.

O`sha joyga qaytadan rang qo`yib aniq ishlashga harakat qiling. Boshning soya tomonining yorug` tomoniga nisbatan munosabati topilgandan so`ng bosh xarakteri, konstruksiyasiga, formani aniqlashtirish va konkretlashtirishga o`tish mumkin.

Detallarni berish va boshning umumiy shaklini aniqlashtirish ikkinchi bosqichdagi ish hisoblanadi. Yuz detallari ishlanganda boshning umumiy qurilishidan ajralib qolmasligi kerak, ular uning konstruksiyasi bilan umumlashib ketishi kerak. Detallarni ishlashga o`tilgandan keyin maydaroq muyqalam olinadi. Odam boshini qalamtasvirini ishlash tajribasidan siz yaxshi bilasizki, shaklni atrof muhitdan ko`pdan ko`p tekisliklar bilan chegaralangan xajmli shakl sifatida tushunish kerak. Har bir o`sha tekisliklar turlicha yorishadi va shaklini ham turlicha

xarakterlaydi. Mo'yqalamda real shaklini chiqarish uchun, har bir qo'yilgan shaklning aniq bir tekisligini, yoki uning u yoki bu qirrasini kursatishi kerak. Shakl tekisliklarini izma iz ishlaganda ularni chegaralarini edirib yuborish shart emas, aksincha yanada mayda chegaralar ajralishi lozim. Ko'zni ishlashga utganda mayda muyqalam bilan ko'z qovoqlarini ishlashga utmasdan oldin, ko'z uyiqlarini kerakli tonini topish kerak, tonni boshning oldin ishlangan joylari bilan solishtirib lozim. Qachon ko'z chuqurligini xarakteri va joyi topilgandan so'ng, ko'zning o'zini ishlashga o'tish mumkin. Bir ko'zni ishlab bo'lib, tezda ikkinchi ko'zga o'tish kerak, ularni to'g'ri joylashtirishga butun diqqat e'tiborni qaratish lozim. Lablarini bitta chizikda chizib qo'ymasdan, ularning shakli yasalishi kerak. Lablar o'z hajmi, o'z tekisligi va tekislik qirralariga ega. Shuning uchun ham uning shaklini qaerda aniq va tiniq ko'rinib turganligi, qaerda yumshoq berilishini topib muyqalam bilan uning shaklini yopishtirib ishlash kerak.

Bo'lak detallarning umumiy shakli urganilgan va yasalgandan keyin naturaning yaxlitligi bo'zilmaganligini diqqat bilan qarab chiqish kerak.

Bosh detallarini ishlashga qiziqib ketib muallif naturaning yaxlitligini o'zi bilmagan holda bo'zib qo'yishi mumkin. Bo'lak detallar juda yaxshi ishlangan bo'lishi mumkin, lekin ular orasidagi bog'liqlik, aloqa yo'qolib ketgan bo'ladi. Buni rassomni o'zi ham sezadi. Detallar tuliq ishlangani bilan, bosh tasvirining hajmi kam seziladi, o'xshashlik yo'q bo'ladi, demak bosh qurilishida xatolar bor. Bunda soyalar to'qlashib, natura yalpoq bo'lib, qoladi, qandaydir kerakmas bliklar ko'payib ketadi.

Bu kamchiliklarning kelib chiqishiga sabab, rassom detallar ustida zo'r berib ishlaganligi uchun yaxlitlikni unutib qo'yadi, uning nigohi o'tmaslashadi. Bunday xatolardan qochish uchun rassom shuni unutmasligi kerakki, detallar ustida ishlab turib, hamma vakt umumiylikni kuzatishi, charchamasdan tenglashtirishi va tahlil qilishi kerak. qachonki detal boshqa detallar bilan

uygunlikda umumiylikka halakit bermasa shunda yaxshi ishlangan bo`ladi.

Masalan, burunni ishlashni boshladik. Uni diqqat bilan kursatib, rangi va shaklini bera boshlaymiz. Burun o`zining yorug`ligiga, yarimsoya, soya, rang optikasiga ega.

Boshlovchi rassom ishlarni ko`zatib, burunni ishlashga berilib ketib, burun boshning umumiy shaklining bir detali ekanligini unutib qo`yadi, natijada detal umumiylikdan bo`lak holda chiziladi. Agar har bir detal bo`lak ishlansa, umumiylik, yaxlitlik ta`suroti buziladi.

Detalni ishlab, qanday qilib umumiylikni buzmaslik mumkin?

Buning uchun u yoki bu detalni ishlab turib, bir vaqtning o`zida butun shaklni o`zini ham diqqat e`tibordan qoldirmaslikka harakat qilish kerak. Bu esa ancha murakkab narsa. Rassom uchun bu ancha mehnat talab qiladigan ish bo`lib , o`zida bu sifatni tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Rassom o`zini - o`zi hamma vakt tuzatib, sinab turishi kerak, detalni ishlashga berilib ketdimi, darrov o`z nigohini kengaytirib, butun modelni ko`ra boshlashi lozim. Detal umumiy shaklning qismi sifatida u bilan aloqada bo`lsa o`zining xaqiqiy ko`rinishini topadi.

O`z ishingizda bu xatoni sezdingizmi, uni tuzatish uchun etudni umumlashtirish kerak. Bu esa ishning uchinchi bosqichi hisoblanadi. Bosh konstruktsiyasini kaytadan tiklash uchun kulingizga katta muyqalam olib, etudingizni ba`zi joylarini qaytadan ishlab, keraksiz detallarni yo`qotib chiqing.

Ishingizdagi eng yorqin dog` faqat bitta joyda bo`lishiga, eng to`q joylar ham takrorlanmasligiga erishing. Soyalar esa qop qora va chuqurga o`xshab qolmasin. Etudingizda ko`p ishlab yuborilgan detallar va bir-biriga bog`liq munosabatlarni umumlashtirish uchun etudni quyuq bo`yoq bilan qaytadan ishlab-chiqish shart emas, yorqin va tiniq bo`yoq larni surtib, lessirovka metodini qo`llash mumkin.

Odam boshini grizayl texnikasida bir necha etudini ishlaganingizdan keyin, «shaklni cho`tka bilan yopishtirish»

malakasini olasiz. Endi bo`yoqni surtmasdan shaklni mazok bilan «yopishtirasiz» etudni umumiylikdan detallashtirishga, shu bilan birga umumiylikni saqlab qolishga erishasiz.

2. Tabiiy yorug`ikda odam boshini rang tasvirini ishlash

Rang tasvir ham xuddi grizayl kabi nisbiy munosabatlar qonuniga asoslanadi. Rangtasvirda ob'ektlar kuzatayotgan daqiqada o`zaro qanday munosabatda bo`lsa, shunday faqatgina tonli emas, balki rang munosabatlariga amal qilishgan holda ham berilishi kerak. Agar naturadan ishlangan portret etudida rang munosabatlari to`g`ri berilgan bo`lsa, biz u odamni xarakterli rang xususiyatlari, uning yuz terisini ranggi to`g`ri olinishi tufayli tanib olamiz.

Tasvirni qurishda eng oldin asosiy xajmlarning nisbatlari topiladi. Rasm chizish jarayonining asosiy qoidalaridan umumiylikdan bo`laklarga amal kilinadi. Rangtasvirni ishlash uchun eng avvalo katta massali, asosiy ob'ektlarni o`zaro rangli, tonli munosabatlarini topish va naturada belgilash lozim. Aks holda, keyin shaklni detallashtirib ishlash naturani koloritik kurinishdagi yaxlitlikni buzadi.

Odam boshini rangtasvirining ishlashdagi boshlangich mashqlarda katta munosabatlar usulini qo`llab ishlab o`rganish lozim. Bu maqsadlar uchun odam boshi va fonini mayda detallariga o`tmasdan umumiy rang munosabatlarini hal qilish uchun bir necha qisqa muddatda etudlar bajariladi. Bunday qisqa muddatli eskiz-etudlarni har bir katta ishga utishdan oldin bajarish tavsiya etiladi.

Mashq-1

Bitta xolstda uchta odam boshini etud qilish

Odam tanasining rangi dunyodagi boshqapredmetlarning rangidan tubdan fark qiladi. Lekin ob'ektiv tana rangi borligiga qaramay dunyoda bir xil rangdagi tanaga, bir xil shaklga, nisbat va

fakturaga ega ikkita inson bo'lmaydi. Bularni nozik ranglarni bir-biridan ajratuvchi rassom ko'zi darrov sezadi.

Shuning uchun ham hamma odamlarni bir hil tana rangida ishlash mumkin emas. Rassom har bir odamni chizganda uning o'ziga xos bo'lgan rangini ko'ra olishi va aniq chizishi kerak. Odam tanasining rangini bir-birlaridan ajratishni urganish uchun uchta har xil naturshik boshini bitta xolstga joylashtirib tasvirlash kerak.

Sizda shunday savol paydo bo'lishi mumkin: «Nimaga uchta boshni bitta xolstda chizish kerak, ularni bo'lak xolstlarda ishlagan yaxshi emasmi?» Bunday etyud ishlashdan maqsad uchta odam boshini ranglari va xarakterini bir-biriga solishtirib, ko'rib ishlashni o'rganishdir.

Buni shunday tarzda amaliyotda sinab kurish mumkin:

Xolstning chap tomoniga bir-ikki seans qiz bolani boshini ishladingiz. Uning qop qora sochlari, tiniq ochiq sarik rangli peshonasiga tushib turibdi. Lablari qizil, bo'yinlari qizg'ish, ochiq sarik – qizg'ish yuzlarining soyasi yokimli yashil-qizg'ish yarim ton beradi.

Keyingi seansda o'rta yashar erkak ishlanadi, boshining tepa qismini sochi to'kilgan. Kalla suyagining anatomik tuzilishi ko'zga aniq tashlanib turibdi. Chuqur ko'z o'yiqlari bu odam boshini hajmi va xarakterini berishga yordam beradi. Bu naturani ishlashdan oldin, oldingi naturadan farkini, bu naturani ishlash uchun umuman boshqabo'yoklar kerakligini sezasiz. Siz darrov shunday xulosaga kelasiz, bu odam ochik havoda kam bo'lgani uchun, uning yuzining rangi pergamentni eslatuvchi so'lg'in sarik – yashil tusda. Boshning soya qismlari ham yashil tob, lekin u kizning soyasidagi yashilga o'xshamaydi, kiz koshining soyalari jigarrang yashil, uni umbra yoki volkonskoit bilan ishlanadi. Bu o'rta yashar odamda qizning peshanasi va lablaridagi yokimli qizg'ish tonlar yukligini sezasiz va bu ish uchun umuman boshqa bo'yoqlar tayyorlash kerakligini tushunasiz.(2-rasmga qarang)

Uchinchi etud uchun esa oq sochli, soqolli cholni taklif etasiz. Oldingi ishlangan ikkita etudga solishtirib ko`rib, bu natura rang va faktura jihatidan umuman oldingi naturalarga o`xshamasligini sezasiz.

Bu shundan dalolat beradiki, inson yuzlari va tanalari shakl xarakteri, nisbatlari, toni fakturasi va ranglari jixatidan birbirlaridan juda katta farq qilar ekanlar. Bu esa har safar portret ishlaganda naturani rangini diqqat bilan tahlil qilib o`rganish kerakligini talab etadi.

Bunday uslub bilan ko`zimizni nozik ranglar, jilvasini ko`ra olishga o`rgatishimiz mumkin va keyin ijodiy ishlarda yordam beradi.



2-rasm


Mashq 2

Yonboshdan tushuvchi yorug`likda naturshik boshni ishlash

Anatomik tuzilishi aniq ko`rinib turgan boshli naturshik deraza yaqiniga o`tirgiziladi. Talabalar shunday o`tirishi kerakki, ularga naturshik boshining soyada qolgan tomoni ko`rinib turishi kerak. Naturshik boshiga issiq rangli optika beruvchi qo`shimcha yoritilgan tekislikdan tushuvchi reflekslar tushib turishi kerak. Rassomning diqqati shakl qurishga, yorug` atrof muhitdan naturaga tushib turgan ton va ranglarni ajratishga qaratilishi kerak.(3-rasmga qarang)

Bu natura misolida kontrast yorug`likda naturaning tonli va rangli xususiyatlarini tahlil qilish mumkin. Odam boshini shaklini qurish derazadan tushib, naturshik boshini yoritib turgan va yorug` tomoniga ko`kish ottenka beruvchi yorug`lik xarakteriga boglik. Osmon qanchalik zangori va yorug`lik kuchli bo`lsa naturshik boshining individual – lokal, tana rangi shunchalik kuchli uzgaradi. Yorug`lik nurlari derazadan qanchalik nur tushib turgan o`sha joylarida osmon ranglari ko`rinib turadi.

Boshning soyadagi qismi atrofdagi predmetlardan aks etib turgan issiq ranglar bilan yoritilgan bo`ladi. Yuqoridan boshga reflekslar shipdan, pastdan esa polga, yonboshdagi devor va boshqa perdmatlardan tushib turadi. Shu reflekslar sababli bosh shaklini soyada ham aniq ko`rib, qurish mumkin. Derazaga yaqin o`tirgan naturshik boshi yorug` va soyaning aniq kontrastlari bilan xarakterlanadi. Naturshik boshi atrofidagi predmetlar va devorlar ochiq ranglarda bo`lsa kontrast uncha bo`lmasligi mumkin, aksincha ular to`q rangli bo`lsa, kontrast kuchli bo`ladi.



3-rasm

3.Sun'iy yorug'likda odam boshini rang tasvirini ishlash


Havaskor rassomlar kechqurun elektr yorug'ligida natyurmort yoki portret ishlanganda ishning koloritik munosabatlari xuddi tabiiy yorug'likda ishlanganga o'xshab qoladi. Bunga asosiy sabab rassomning va buyum rangini tajribasizligi undagi o'zgarishlarga qaramay qanday bo'lsa o'shanday qabul qilishdir. Ranglar esa yorug'lik ta'sirida o'zgarishi mumkin. Bunda ranglar qaysi tUSDagi yorug'lik bilan yoritilsa ushani o'zida kuproq aks ettiradi.

Masalan: quyosh botayotgan paytda uning qizg'ish yogdusi tabiatdagi barcha ranglarning qizg'ish tusga belaydi va ularning rang tuslarini tubdan uzgartiradi.

Oy yorug'ida esa kupchilik rang tuslari sovuq kurinishga ega bo'ladi.

Ranglarni bir biridan farq qilishda ko'zning sezish qobiliyati muxim rol uynaydi. Sun'iy yorug'lik shu'lalari ostidagi rang tuslarini kuzatganimizda bir-birlariga o'xshamagan (tabiiy yorug'lik nazarida tutiladi) bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin. Elektr lampochkasi yorug'da sariq ranglar oqarib, zangori rang yashiltob bo'lib ko'rinadi, qizil esa zarg'aldoqqa o'xshatib ketadi, jigar ranglar qizg'ish ba'zan sarg'ish bo'lib qoladi. CHunki bu lampochkaning nurlari atrofiga sarg'ish tusda tarqaladi va ranglarning keng miqyosda o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Sun'iy yorug'likda ranglarni tajribali rassomlargina undagi uzgarishlari bilan qabul qiladi. Boshlovchi rassomlar predmet rangini qanday bo'lsa ushanday qilib qo'yib katta xatoga yo'l qo'yishadi. Shuning uchun sun'iy yorug'likda qo'yilgan naturaning rangini birinchi taassurotlari bilan qayd qilishni o'rganish uchun bir necha mashqlar bajarish lozim. Bunday qisqa muddatli (30 minut) mashqlar har bir uzoq muddatli ishga o'tishdan oldin bajariladi.



4-rasm

Mashq-1

Soya tomonidan sun'iy yorug'lik bilan yoritilgan boshning etudini ishlash

Mashqning asosiy maqsadi ikki tomonlama yoritilish sharoitlarida shakl yasash va rangning xarakterli o'zgarishlarini berish, rangni ko'ra bilish ko'nikmalarini oshirish.

Naturachi yorug' tomonidan tabiiy yorug'lik bilan, soya tomondagi 40-60 VT elektr lampochkasi bilan yoritiladi. Sun'iy sarg'ish yorug'lik bilan yoritilgan soya tomon issiq soya va sovuq yorug'lik bilan yoritilgan yuz qismining kontrastini kuchaytiradi. Bir vaqtning o'zida yuzning yorug' va soya qismlarini solishtirib ko'rilsa, ko'rinishning adaptatsiya qonuni kam harakat qiladi va buning uchun talabalar naturaning ranglarini xaqiqiy kuchini, issiq sovuq yoritilishlarini uzoq vaqt qabul qilishi mumkin.

Mashq –2

Sun'iy yoritilish sharoitida odam boshining etudini ishlash

Bu mashq odam boshini undagi rang o'zgarishlari bilan tasvirlash kerakligi uchun ancha qiyin hisoblanadi. Kechkuringi elektr yorug'ligi zarg'aldoq rang sifatlariga ega bo'ladi, shuning uchun ham xonadagi barcha predmetlar va naturalarga o'z ta'sirini utkazishi mumkin. Naturaning rangi sun'iy yorug'likda kuchli o'zgaradi buni kurish orqali ancha sezmaslik mumkin elektr yorug'ligida oq rangli guldan gips kalla oq bo'lib kurinadi, aslida esa unga elektor yorug'ligining tartibidagi zarg'aldoq ranglarning ta'siri ancha katta bo'ladi. Ularni faqat oq bo'yoq bilan ishlash mumkin emas. Tajribali rassom bu maqsad uchun toza zarg'aldoq rang ishlatadi. Bu ko'rinishning ma'nosini aniq tushunish uchun mashqni takrorlab, quyidagicha ish sharoiti yaratish mumkin. Natura elektor lampochkasi bilan yoritiladi, rassom esa tabiiy yorug'lik bilan yoritilgan boshqa xonada bo'ladi. Bunda sun'iy

yorug`likka adaltatsiya bo`lmaydi va kuchli issiq kolorit beruvchi etudlarni oson va aniq ishlash mumkin. qisqa etudlarda sun`iiy yorug`lik qonuniyatlarini uzlashtirib olingandan keyin ish bajarishga o`tish mumkin. Sun`iy yoritilish sharoitida uzoq muddatli ish bajarishdan asosiy maqsad, shaklning hajmini, rang xolatini naturani detallashtirib ishlashni, tasvirni rang yaxlitligi va birligi asosida tasvirlashni o`rgatishdir.

4. Plener sharoitida odam boshini tasvirini ishlash

Bu vazifaning maqsadi ochiq osmon va havoda odam boshini tasvirini ishlashni o`rganishdir. Buning uchun turli yoritilish holatlarida, masalan quyoshli, bulutli va ob-havoning boshqa hil holatlarida modelni bir necha xil etudlarini ishlash ancha foydali.

Odamlarning xayoti, mexnati, dam olishi va tabiat bilan bog`liq bo`lganligi uchun ham odam boshi va figurasini plener sharoitida ishlab urganish juda muxim.

Bundan tashqari ochiq havoda odam boshini ishlash rassom uchun juda ko`p yangilik, o`ziga xoslikni ochadi, insonning tabiatini ijodiy qabul qilishini, go`zallikni ko`ra olishini kengaytiradi.

Plenerda ishlashni urganish portretchiga ham, manzarachi, kompozitsion kartina ustida ishlovchi rassom uchun ham juda muhimdir.

Buyuk rassom V.I. Surikov o`zining «Boyr xotin Morozova» asari uchun juda ko`p etudlar ishlagan. Bu etudlar osmon, qor fonida ishlangan bo`lib , personajlarining yuzida osmon, yogayotgan qor va boshqa predmetlarining refleksi ko`rish mumkin. Agar rassom o`z personajlari naturalarini uzoq vaqt kuzatib, plener etudlari qilmaganda edi, uning kartinasi o`z go`zalligini va hayotiyli bilan ajralib turmas edi.

Agar biz plener sharoitida rangi so`lg'in ayolni boshini ishlasak, quyosh yorug`ligi uning yuziga qizgish va sargish tus beradi. Kun qoraya boshlashi bilan issiq, qizg`ish tonlar rangi to`qlasha boshlaydi. Sun`iy yorug`likda xona ichidagi modelda issiq va

sovuq ranglar munosabatlari arang ko`zga tashlanuvchi kumush rang tonlar orqali berilsa, xuddi shu modelda quyosh nurlari ostida issiq yorug`lik va sovuq soyalarining kuchli kontrastlari paydo bo`ladi, ya'ni tinik ko`k va yashil ranglar odam elkasida boshqaochiq rangli predmetlardan, issik ranglar, sarik – olovrang reflekslar tushadi.

quyosh yorug`ligida reflekslar tonga nisbatan ochiq va ranglariga nisbatan esa kuchli bo`ladi. SHuning uchun ham xavoskor, boshlovchi rassosmlar tez-tez xato qilishadi. Demak, predmetda reflekslar qanchalik yorug` bo`lsa ham yorug`likdan yorug` bulmaydi. Shuning uchun ham ishlayotganda faqat soya bilangina emas, balki yorug`lik bilan ham tenglashtirib ko`rish lozim.

Refleksni yorug` va soyadan bo`lak ishlash yaramaydi, balki ularni bir vaqtda ishlash kerak. Ishlaganda esa shaklini ko`rishga yordam berishi lozim.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, plener sharoitida rang munosabatlarini tiniqroq olib, issiq va sovuq tonlari orasidagi kontrastini topish kerak bo`ladi.


Plenerda etud ishlaganda odam boshini ulchamini ustaxona sharoitida ishlangan etudga qaraganda kichikroq olinadi. Chunki bu erda ustaxonadagiga nisbatan kamroq vaqtda ishlanadi.

Ochiq xavoda quyosh ostida ishlaganda ikki qavat materialdan to`zilgan soyabon ostida ishlagan yaxshi. Bu soyabonning yuqorisi oq, pastki qismi esa qora materialdan bo`lgani yaxshi. Bunday soyabon ostida quyosh yorug`ligi ostidagi boshning rangini ancha yaxshi topish mumkin.

Plenerda odam boshini rangtasvirini ishlash jarayonida buyuk rassomlarning asarlari bilan tanishib borish katta ahamiyatga ega. Masalan, V.D. Polenovning «Falastin etudlari», I.E. Repinning «Xochli yurish» asari uchun ishlagan bukri etudi juda katta maxorat bilash ishlangan. Repin bu etudda quyosh yorug`ligi bilan yoritilgan boshning rangini aniq olgan, ko`zining chuqurligi va

uning atrofidagi issiq reflekslar yaxshi topilgan. Rassom yorug`lik kuchini juda aniq qilib taqsimlay olgan. (5-rasmga qarang)

O`zbek rassomlaridan M.Saidovning «Oila» (1969), R.A. Ahmedovning 1962 yilda ishlangan «Tong. Onalik» asari, Z.Inogomovning «Choyga» (1957) asari, P.P. Benkovning «Dutorchi qiz» (1947), V.M. Boboevning «Fargona syuitasi» (1969) asari, N.G. Qoraxonning «Bug`doy ekayotgan ayol» (1946) asarlari – tabiat qo`ynida, ochiq havoda juda katta maxorat bilan ishlangan asarlar hisoblanadi.



5-rasm

Mashq – 1

Kunduzgi, quyosh yorug`ligi sharoitida naturshik boshini tasvirini ishlash

Bu vazifani bajarishdan maqsad kunduzgi quyosh yorug`ligi sharoitida yorug` muxit ta'sirini berish va to`g`ri kabul qilishni o`rganishdir.

Naturshik boshi to`g`ri quyosh nuri bilan yoritilgan bo`lsa, bo`yoqlarning umumiy chizmasi yorqinlashadi. Bu sharoitda boshning lokal rangi rangsizroq ko`rinadi. quyosh nuri burchak ostida tushgan sayin esa, yorug`lik kuchsiz beriladi, boshning yorug` qismida asta-sekin rang atenkalar paydo bo`ladi.

Odam boshini rangi yuqoridan yorug`lik va reflekslardan pastdan – er, o`tlar yoki suvlar reflekslari bilan aniqlanib ishlanadi.

Predmetning soyadagi koloristik qurilishi, naturaning yorug` tomoniga nisbatan ranglarning tuyginligi, yorqinligi va pishiqligi bilan xarakterlanadi, soya yorug` ranglarga kontrast hisoblanadi va atrofdagi predmetlardan tushgan akslar, reflekslarga boy bo`ladi. Ko`m – ko`k osmon reflekslari, reflekslar mozaikasini umumlashtiradi va soya qismining umumiy koloristik birligini yaratadi. Kunduzgi quyosh yorug`ligining reflekslari toni kuchli tuyingan va yorqinlashgan bo`ladi. SHunga e`tibor berish kerakki, kuchli quyosh yorug`ligida rang to`yinganligi kuchsiz va aksincha soya reflekslari esa ko`proq to`yinganroq bo`ladi. Tajribasiz rassomlar quyosh yorug`ligida ishlanganlarida jiddiy xatolariga yo`l qo`yishadi – ya'ni, reflekslarning yorqinligini oshirishadi yoki soyani juda to`q qo`yishadi. Havo bulut kuni odam boshini etudini ko`proq vaqtda quyoshli kunda, ertalab va kun botishda bir soatdan ortiq ishlab bo`lmaydi. Bulutli kunda yorug`lik munosabatlari quyoshli kundagiga nisbatan tez o`zgarmaydi. Shuning uchun ham quyoshli kunda kichik o`lchamdagi bir seansli etudlarni chizgan yaxshi.

2- mashq

Soyadagi naturshik boshini etud qilish

Postanovkaga qo'yiladigan birinchi va eng kerakli talablardan biri bu – quyoshli kun sharoitida naturaning holatini berish hisoblanadi.

Ish boshlashdan oldin rang tasvir qonuniyatlarini V.A.Serovning «Devushka osveshennaya solntsem» kartinasi misolida tahlil qilish mumkin. Bu asarda qizning qo'li, tirsakkacha bo'lgan joylari va ustidan koftasida kichikrok joylariga quyosh yorug'ligi tushgan. Boshqajoylarga soya tushgan. Kartinada modelning boshi va kuliga daraxt yaproklarining soyasi tushgan bo'lib, bu erga quyosh yorug'ligi tushgan maydonning issiqligi reflekslari va koftaning aksi ham berilgan. SHaklning hajmi kalamtasvir vositalarida grafik usulda, burmalar harakati konturda beriladi; rangtasvirda esa issik va sovuq ranglarni qarama-qarshi qo'yish orqali beriladi; katta shaklda yarim soyaning issiq yashiltob ottenkasiga butunlay yo'g'rilgan. Undan yuzga-burun, peshonaga ozrok refleks urilgan. Daraxtdan tushayotgan katta soyalarda ozrok reflekslarni ko'rishimiz mumkin.

Bosh, gavda va elkaga tushayotgan umumiy soya orqada kurinayotgan o'tloqqa tushayotgan quyosh nurini bo'rttirib ko'rsatadi. Qiz suyanib o'tirgan daraxtda va uning sochlarida osmondan tushayotgan sovuq reflekslar ko'rinadi. Bu kartinada plenerda rangli portret ishlash muammosi juda yaxshi hal qilingan.

V.A. Serov asarini tahlil qilib, o'rganib bo'lgandan so'ng, albatta tirik modelni plener sharoitida rang munosabatlarini tahlil qilish va o'rganish lozim.

Portret rangtasvirining vazifalari

Yuqorida keltirilgan mashqlarda asosiy e'tibor odam boshini rangli tasvirlashning elementlariga qaratilgan. Portretning ijodiy vazifalari uning kompozitsiyasi va badiiy obraziga tuxtalmadik. Bu narsalar maxsus diqqat e'tibor va kompozitsiya soxasidagi bilimini talab etadi. Bu uslubiy qo'llanmada asosiy e'tibor rangtasvir savodxonligiga qaratilgan bo'lib o'quv rangtasvirining va ijodiy portretini kompozitsiyasiga ham qisqacha to'xtalib o'tdik.

Odam boshini tasvirlashda eng avval odamning individual o'xshashligini, uning yosh xususiyatlarini, kasbiy belgilarini ko'rsatishga harakat qilish kerak. Ishonchli tanlangan sharoit detallari ham tasvirlanayotgan odamning xarakteristikasini aniq ochishga yordam berishi kerak.

Portret ishlashda uning plastik xarakteristkasi, eng avvalo tasvirlanayotgan odamning qalb sifatleri, psixologiyasi, shuningdek aniq shaxs siymosida odamlarning sotsial va milliy umumiyiligiga asoslangan belgilarini ochib berishi kerak. YAxshi portret – bu eng asosiysi xarakterli, individual – takrorlanmas, kat'iy- printsipial talab bilan ishlangan ish hisoblanadi.

Tomoshabin diqqat e'tibori portreti ishlangan odamning boshi va yuziga karatilishi kerak. Portretnda eng asosiysi bu odamning yuzi va yuzida aks etgan xissiyotlaridir. Unda insonning ichki hayoti aks etadi. Odamning xarakteri, uni kimligini aniq va to'liq ochib beruvchi his tuyg'uni izlash va tasvirlash juda muhim.

Shuning uchun portret yuziga asosiy diqqatni qaratib, ikkinchi darajali detallar esa asosiysini to'ldirishi va kuchaytirishi kerak. Tasvirlanayotgan odamning xarakteristkasini ochib bilishda uning ko'zi va lablari katta rol o'ynaydi.

Bularda aks etgan his-tuyg'uni topish bilan biz odamning psixologik holatini ochib beruvchi kalit topgan bo'lamiz. Portretnda odamning qo'li ham katta rol uynaydi. Odamning qo'li orqali biz uning kasbi, xarakteri, yoshi haqida fikr bildirishimiz mumkin.

Bunga misol qilib biz K.P. Bryullovning «Avtoportret»ini keltirishimiz mumkin.

Odam boshining harakati, uning burilishi, qiyshayishi, yuz mimikasi, figura pozasi ham uning xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. Odam tabiiy xolatda, xarakterli pozada tasvirlanishi kerak. Bularning hammasi kompozitsion qurishining asosi hisoblanadi.

Odamning xarakterli ichki holati, individual xususiyatlarini tushunish va ochib berish portretchi rassomning asosiy vazifasi hisoblanadi. Tasvirlanayotgan odamning xarakteri va holatini berishda uning holati va qo`l harakatlari, imo-ishoralari ham katta ahamiyatga ega. Bularning hammasi yuz holati xis-tuyg`usiga mos kelishi kerak. Portretning jest va harakatlari odamning ruxiy qiyofasi, xarakteri, dunyoga bulgan munosabatlarini ochib beradi. Inson tabiatini ochib berish u yoki bu hodisa yoki xolatlarga reaksiyasi, xarakter harakatlari – inson xarakteri ichiga kirish va bilib olishga yordam beradi.

(6-rasmga qarang)



6-rasm

Harakat – odamning eng yaxshi xarakteristikasidir. Bu haqda faqat kartina ishlaganda emas, balki portret ustida ishlashda ham o`ylash kerak. Rassom M.V. Nesterov ishlagan I.P.Pavlovning ikkita portretini eslaylik. Bir tasvirda Pavlov kitob o`qiyotgan holatda tasvirlangan, boshqasida esa barmoqlarini yig`gan va oldinga uzatgan xolatda tasvirlangan. Birinchi portret uncha qiziqarli emas. Ikkinchisi – portret san`atining go`zal namunasidir. Ikkilasidayam Pavlov so`zsiz o`xshash, lekin ikkinchi portretida ishonchli topilgan harakat tufayli buyuk olimning xarakteri juda yaxshi topilgan. Portret ishlashda kostum tanlash ham katta ahamiyatga ega. Kiyim–kechagi orqali biz tasvirlanayotgan odamning xarakteri, uning kasbi xaqida keng tasavvurga ega bulamiz. Odam obrazini keltirib chiqarishda atrof-muxit, fon katta rol uynaydi. Yuqorida eslatib o`tilgan Serovning «M.I. Ermolova» portreti o`ziga tanish bo`lgan teatr foyesining devori va oynasi fonida tasvirlangan. Lekin kartinadagi berilgan fon tomoshabinning diqqatini so`ndirmasligi kerak.

«Muvaffaqiyatli tanlangan fon ishning yarmi, - degan M.V. Nesterov, - chunki fon tasvirlanayotgan yuz, xarakter, harakat bilan organik bog`langan bulishi kerak». Fon tasvirlanayotgan odamning hayotida qatnashadi.

Portretni naturaning o`lchamidan katta qilib tasvirlash yaramaydi. Kartinalarning barchasi bir qancha masofadan turib ko`rinadi. Tavsir masofada perspektiv qisqarishlari va kerakli masofada o`z o`lchamida yoki biroz kichikroq qilib perspektiv qisqarishlari bilan tasvirlansa, bu tabiiy qabul qilinadi.


Portret san`atida albatta o`xshashlikka e`tibor berish kerak. Original bilan o`xshashliksiz portret bo`lmaydi. Portret eng avvalo hujjat hisoblanadi. Lekin portret fotografiyadan odamning xarakterli belgilarini bera olishi bilan farq qiladi.

Formalistik oqim tarafdorlarining fikricha, portret san`atida real shaxs emas, balki rassomning inson haqidagi shaxsiy tasavvurlari asosiy hisoblanadi. Bu balki ular odamning ichki dunyosini e`tiborga olmasliklari, odamni tasvirlashda ixtiyoriy yondashishlari

kerakligini isbotlamoqchi bo`ladilar. Portretga «Natyurmort»ga yondashib ham ishlaydilar. Bu erda inson yuzi detallari bir qancha dekorativ sxema sifatida ishlanadi. Ko`zlar qalb oynasi sifatida emas, balki bosh atributlari sifatida tasvirlanadi. Bunday portretlarda tasvirlanayotgan odamning psixologiyasi his-tuyg`u va fikrlari umuman bo`lmaydi.

Rassom rasm chizishni texnik priyomlarini yaxshi egallagan bo`lsa, xolstda ishlangan harakatlar bilan shaklning rangini oson hal qiladi, xarakterli nisbatlari, konstruktiv ko`rilishi va hajmini bera oladi, bu bilan rassom o`z ishidan qoniqadi va tomoshabinlarni ham hayratlantiradi.

REPRODUKTSIYALAR




Leonardo da Vinci. Jokonda. 1503-1505. Moybo`yoq



**Hals F.Qo`lida qo`lqop ushlab turgan yigit portreti.
1650 yil. Moybo`yok**



T.Geynsboro. Ko`k libosli ayol portreti. 1770 yillar oxiri. Moybo`yoq



**V.A. Tropinin. Rassomning o`g`li Arseniy portreti.
1818 yillar. Moybo`yoq**

ADABIYOTLAR

1. Алексеев С.С. «О колорите». М. 1974.
2. Беда Г.В. «Живопись и её изобразительные средства» М. 1977.
3. Смирнов Г.В. «Живопись». М. 1975.
4. G.Abdurahmonov. «Rangtasvir va kompozitsiyadan metodik tavsiyalar» Т. 1995.
5. Г.В.Беда. «Живопись» М. 1985.
6. Н.Н.Ростовцев, С.Е.Игнатьев, Е.В.Шорохов. Рисунок. Живопись. Композиция. М. 1989.
7. Школа изобразительного искусство. М. 1989.
8. А.Е.Терентьев. «Изображение животных и птиц средствами рисунка и живописи. М. 1980.
9. А.А. Унковский. «Живопись» «Вопросы колорита» М. 1980.
10. X.Egamov. «Bo`yoqlar bilan ishlash» Т. 1981.
11. M.Nabiev. «Rangshunoslik va rangtasvir texnologiyasi» Т. 1995.
12. Н.В.Одноралов. «Материалы в изобразительном искусстве» М. 1983.
13. Энциклопедия художника. М-2000 г.
14. П. Кощель. Энциклопедический словарь школьника". М – 2000 г.
15. Н. М. Сокольникова «Изобразительное искусство и методика его преподавания в начальной школе». М. «АСАДЕМІА» - 1999 г.
16. С.Д.Левин "Беседы юным художником" М-1988.
17. Н.Н.Ростовцев "Методика преподавания изобразительного искусства в школе" М-2000.
18. Н.П.Бестчастнов и др. "Живопись" М-"Владос"-2001.
19. Е.В.Шорохов "Основы композиции" М-1979.

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

**Odam boshini rangtasvirini ishlash
(rangtasvirdan o`quv metodik
qo`llanma)**

**Tuzuvchi: Texnikaviy va badiiy grafika kafedrası
katta o`qituvchisi Ibodullaeva N.E.**

Buyurtma _____

Format _____

Tiraj _____

Bosishga ruhsat

etildi _____

Hajmi 2,5 b.t

Urganch – 2006